Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni.....	2015
<i>Karimov Faxriddin Xurramovich</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	2019
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa.....	2023
<i>Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich</i>	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun	2028
<i>Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich</i>	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	2032
<i>Almardanova Salomat Bobonazarovna</i>	

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati	2035
<i>Ashirov Abdurashid Ravshanovich</i>	
Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihagini amalga oshirishning o'ziga xosligi	2040
<i>Azimova Odinaxon Abduqodir qizi</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	2043
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari	2049
<i>Kurbanov Baxrom</i>	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari	2053
<i>Madaminova Nilufar Madrasulovna</i>	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari	2056
<i>Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich</i>	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash	2059
<i>Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2064
<i>Mamasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
<i>Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich</i>	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari	2072
<i>Mo'minova Dilnavoz Komilovna</i>	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
<i>Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna</i>	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
<i>Ogina Otajonova</i>	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari	2084
<i>Oromiddinov Sardorbek Botirovich</i>	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari	2089
<i>Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li</i>	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
<i>Qodirova Feruza Usmanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
<i>Sobirova Bonu Matkarimovna</i>	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati	2099
<i>Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna</i>	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
<i>Mamasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi	2105
<i>Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	2109
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
<i>Y. T. Umarova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	2118
<i>Yakubova Manzura Abduraxmonovna</i>	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish	2121
<i>Yaxyayeva Umida Sharifovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli	2125
<i>Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi</i>	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati	2130
<i>Sodiqov Murod Naimovich</i>	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi	2134
Tashpulatov Farxad Alisherovich	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
Eshniyazova Maysara Beknazarovna	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish	2149
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyevich	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli	2155
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi	2162
Djurakulova Adolat Xolmuratovna	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language	2165
Babayeva Komila Rishatovna	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
Buharbayev Muxtar Yusupovich	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar	2172
Do’schanova Nafosat Norimonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikirlashni rivojlantirish texnologiyalari	2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
Jumanazarova Guljahon	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
Kimsanboyeva Ruksoraxon Ziyodbek qizi	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari	2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
Shamsiyeva M. R.	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari	2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки	2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)	



TINCHLIK MADANIYATI KONSEPSIYASINING EVOLYUSIYASI: KLASSIK VA ZAMONAVIY FALSAFA

Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich

Andijon davlat univrsiteti Huquq-iqtisod fakulteti
Huquq va ma'naviyat asoslari kafedrası (PhD)„ dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Uyg'onish davrining yetuk vakili, faylasuf va ma'rifatparvar Immanuel Kantning falsafiy qarashlarida abadiy tinchlik konsepsiyasining nazariy asoslari va uni amalga oshirish yo'llari ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda Kant ijodining muhim namunasi hisoblangan "Abadiy tinchlik sari" asaridagi siyosiy-huquqiy va axloqiy g'oyalari markaziy o'rinda o'rganiladi. Shuningdek, tinchlikni ta'minlashga doir qarashlarning metodologik va qiyosiy jihatlari ochib berilib, ularning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi ahamiyati asoslanadi. Maqola tinchlikni huquq, axloq va davlatlararo hamkorlik bilan uzviy bog'liq ijtimoiy hodisa sifatida talqin etishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: tinchlik, abadiy tinchlik, tashqi siyosat, birlashish, shartnoma nazariyasi, xalqlarning buyuk ittifoqi, mustaqil davlatlar federatsiyasi, respublika, qonuniyat-maksima, axloq, huquq, xalqaro munosabatlar.

Abstract: This article provides a scholarly analysis of the concept of perpetual peace within the philosophical system of Immanuel Kant, a prominent representative of the Enlightenment era. Particular attention is given to Kant's seminal work "Perpetual Peace", which outlines the political, legal, and moral foundations for establishing lasting peace among states. The study examines methodological and comparative dimensions of Kant's ideas and highlights their relevance to contemporary international relations. The findings emphasize that Kant's vision of peace, grounded in law, morality, and international cooperation, remains a significant theoretical framework for understanding global stability.

Key words: peace, perpetual peace, foreign policy, unification, social contract theory, great alliance of peoples, federation of independent states, republic, legal maxim, morality, law, international relations.

Аннотация: В статье проводится научный анализ концепции вечного мира в философской системе выдающегося мыслителя эпохи Просвещения Иммануила Канта. Основное внимание уделяется труду "К вечному миру", в котором раскрываются политико-правовые и нравственные основы установления устойчивого мира между государствами. В рамках исследования рассматриваются методологические и сравнительные аспекты кантовского учения, а также его значение для современного понимания международных отношений. Делается вывод о том, что идеи Канта сохраняют актуальность в контексте формирования правового и морального порядка глобального мира.

Ключевые слова: мир, вечный мир, внешняя политика, объединение, теория договора, великий союз народов, федерация независимых государств, республика, максима закона, мораль, право, международные отношения.

KIRISH

Dunyo miqyosida tinchlikni ta'minlash masalasi shaxs va ijtimoiy birliklarning siyosiy faolligi hamda mas'uliyatini oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, u jamiyatning umumiy tarixiy rivojlanish darajasiga mos ravishda kun tartibiga qo'yib kelinmoqda. Mazkur masala jamiyatning siyosiy ustqurmasi elementlari hamda ijtimoiy ong shakllarining ta'lim-tarbiya vazifalari tarkibida muhim o'rin egallaydi. Global miqyosda davlatlararo munosabatlar murakkablashib borayotgan hozirgi sharoitda tinchlikni ta'minlash siyosatini izchil rivojlantirish barqaror taraqqiyotning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan, tinchlik siyosati ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy faoliyat yo'nalishlarini uyg'unlashtiruvchi universal omilga aylanib bormoqda.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi insoniyat sivilizatsiyasining iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy muvozanatga intilishi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, ehtiyoj va manfaatlarning miqdoriy hamda sifat jihatdan o'zgarib borishi tinchlik va barqarorlik masalalariga yangicha yondashuvni taqozo etadi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, tinchlikni ta'minlash faqat alohida siyosiy yoki huquqiy choralar bilan emas, balki erkinlik, adolat, tenglik, demokratiya, bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillariga asoslangan tinchlik madaniyatini shakllantirish

orqali samarali amalga oshiriladi. Aynan shu yondashuv jamiyatda barqaror hamkorlik, ijtimoiy birdamlik va kelajak taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tinchlik va tinchlik madaniyati muammolari falsafiy tafakkur tarixida muhim o'rin egallaydi. Ushbu masala bo'yicha fundamental yondashuvlar Immanuel Kantning "Abadiy tinchlik sari" asarida o'z ifodasini topgan bo'lib, unda davlatlararo munosabatlarni huquqiy-me'yoriy asosda tartibga solish hamda respublikachilik tamoyillariga tayangan holda barqaror tinchlikni ta'minlash g'oyasi ilgari suriladi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda Kant konsepsiyasi xalqaro huquq, axloq va siyosiy falsafa nuqtayi nazaridan keng qamrovda tahlil qilinmoqda. Xususan, B. Orend tinchlik va adolat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kantchilik yondashuvi asosida asoslab beradi. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "tinchlik madaniyati" konsepsiyasi esa zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan ijtimoiy-madaniy yondashuv sifatida e'tirof etiladi. A.N. Samarina va boshqa tadqiqotchilar tinchlik madaniyatini fanlararo hodisa sifatida talqin qilib, uning axloqiy, huquqiy va sotsial jihatlarini ilmiy asoslaydilar. Ushbu nazariy qarashlar tinchlikni nafaqat urushning yo'qligi, balki barqaror ijtimoiy hamjihatlik va o'zaro hamkorlik holati sifatida anglashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot falsafiy fanlarga xos kompleks yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida tahliliy va sintetik metodlardan foydalanilib, tinchlik hamda tinchlik madaniyati tushunchalarining mazmun-mohiyati izchil yoritildi. Immanuel Kantning "Abadiy tinchlik sari" asari asosiy manba sifatida tanlanib, undagi konseptual g'oyalar zamonaviy falsafiy va siyosiy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Shuningdek, tarixiy-falsafiy metod yordamida tinchlik konsepsiyasining evolyutsiyasi klassik va zamonaviy davrlar kesimida o'rganildi. Mavzuni yanada chuqurroq ochib berish maqsadida mantiqiy-tahliliy hamda kontseptual yondashuvlar qo'llanildi. Xalqaro tashkilotlar – UNESCO, BMT va JSST hujjatlarini hamda statistik ma'lumotlari ikkilamchi manbalar sifatida tahlil qilinib, tinchlik va zo'ravonlik masalalarining ijtimoiy oqibatlarini ilmiy jihatdan baholandi. Tadqiqot natijalari umumlashtirilib, nazariy xulosalar chiqarish orqali tizimlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Tinchlik nima?" degan savol tinchlik tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlashga qaratilgan nazariy muammoni anglatadi. Tinchlikning mazmunini yoritish uning asosiy va belgilovchi xususiyatlarini ilmiy jihatdan tavsiflashni talab etadi. Mazkur tushunchani anglash shuni ko'rsatadiki, tinchlik urushning oddiy muqobili emas, balki jamiyat va shaxsdan yuqori darajadagi mas'uliyatni talab etuvchi murakkab ijtimoiy holatdir. Xususan, tinchlik mehnatsevarlik, jasorat, tashqi va ichki intizom, sabr-toqat, bardoshlilik hamda ijodkorlik kabi fazilatlarining uyg'un namoyon bo'lishini taqozo etadi. Aynan ushbu sifatlar asosida tinchlik barqaror ijtimoiy munosabatlar va jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanadi¹.

Tinchlik o'zaro farqlarni tan oluvchi uyg'unlikni ifodalovchi mazmunlar orqali talqin etilishi mumkin. Bu jarayon ziddiyatsizlik madaniyati, yarashuv madaniyati va o'zaro tan olish tamoyillari bilan bog'liq bo'lib, turli ijtimoiy munosabatlarning o'zaro mosligini anglatadi. Biroq bunday uyg'unlikning qaysi sharoitlarda, qanday asoslarda va munosabatlar darajasida barqaror saqlanishi muhim ilmiy masala hisoblanadi. Tinchlik, avvalo, har bir fuqaroning jamiyat a'zolari bilan tinch-totuv yashashini, shuningdek, insonlarning o'z yashash muhitini inobatga olgan holda tabiat bilan o'zaro uyg'un munosabatda bo'lishini ifodalaydi. Shu ma'noda tinchlik hayotning barcha sohalarida zo'ravonlikdan xoli bo'lgan o'zaro totuvlik holati sifatida talqin etiladi. Ushbu xususiyatlar tinchlikning demokratiya, tenglik, erkinlik va adolat tamoyillariga tayanishini ko'rsatadi.

Tinchlik demokratiya, tenglik, erkinlik va adolat qadriyatlarining jamiyat hayotida keng qaror topishini, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro yordam, ishonch va hamjihatlik muhitining ustuvorligini anglatadi. U insoniyatning erkinlik va ijtimoiylashuv jarayonlari orqali erishgan barqaror ijtimoiy holati sifatida namoyon bo'ladi. Tinchlik sharoitida jamiyat taraqqiyoti ijodkorlik, hamkorlik va o'zaro mas'uliyat asosida rivojlanib, zo'ravonlikka moyillikning oldini olish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Aynan shu jihatlar tinchlikni insoniyat barqaror kelajagining muhim omili sifatida e'tirof etishga asos bo'ladi².

Zo'ravonlik murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy-huquqiy tushuncha hisoblanadi. U, odatda, jarohat yetkazish, zarar keltirish, mahrum qilish yoki o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan tahdid va kuch ishlatish bilan bog'liq holat

- 1 War and International Justice: a Kantian perspective by Brian Orend. Wilfrid Laurier Univ. Press, 2000. ISBN 0889203377 pp. 145–146
- 2 Prefaces to Peace: a Symposium [i.e. anthology], Consisting of [works by] Wendell L. Willkie, Herbert Hoover and Hugh Gibson, Henry A. Wallace, [and] Sumner Welles. "Cooperatively published by Simon and Schuster; Doubleday, Doran, and Co.; Reynal & Hitchcock; [and] Columbia University Press", [194-]. xii, 437 p.



sifatida talqin etiladi. Zo'rvonlik jismoniy, og'zaki yoki psixologik shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) zo'rvonlikni "o'z-o'ziga, boshqa shaxsga, guruh yoki jamoaga nisbatan qasddan jismoniy kuch yoki hokimiyatdan foydalanish, yoxud undan foydalanish tahdidi bo'lib³, u jarohat, ruhiy zarar, rivojlanishdan cheklanish yoki o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan holat" sifatida ta'riflaydi. Ushbu ta'rif zo'rvonlikning niyatlilik jihatini alohida ta'kidlab, uni kuch munosabatlari doirasida yuzaga keladigan harakatlar majmui sifatida kengroq talqin qilish imkonini beradi.

Global statistik ma'lumotlarga ko'ra, har yili taxminan 8 million dona yengil qurol ishlab chiqariladi hamda sayyoradagi har bir inson ulushiga o'rtacha 2 dona o'q to'g'ri keladi. Qurolli zo'rvonlik oqibatida halok bo'lgan har 3 kishidan 2 nafari nisbatan tinch deb hisoblangan mamlakatlarda hayotdan ko'z yumadi. Shu bilan birga, qurolli zo'rvonlikda halok bo'lgan har bir kishi uchun o'rtacha 10 nafar inson turli darajadagi jarohatlar oladi.

Keng ma'noda zo'rvonlik tushunchasi nafaqat bevosita xulq-atvor bilan bog'liq zo'rvonlikni, balki tizimli va strukturaviy shakllarni ham qamrab oladi. Strukturaviy zo'rvonlik adolatsiz va teng bo'lmagan ijtimoiy hamda iqtisodiy tizimlardan kelib chiqib, qashshoqlik, ijtimoiy cheklanish va imkoniyatlardan mahrumlik ko'rinishida namoyon bo'ladi. Har yili dunyo miqyosida 1,6 milliondan ortiq inson zo'rvonlik bilan bog'liq holatlar natijasida vafot etadi, millionlab odamlar esa jismoniy, jinsiy, reproduktiv va ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Bu holatlar sog'liqni saqlash tizimi, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati va mehnat unumdorligi orqali milliy iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Zo'rvonlikning strukturaviy va madaniy shakllari ayrim jamiyatlarda tarixiy va ijtimoiy omillar ta'sirida tabiiy hol sifatida qabul qilinib kelgan. Bunday zo'rvonlik uzoq muddat davom etib, ayrim hollarda bevosita zo'rvonlik holatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, noqulay hududlarda ta'lim olish imkoniyatlarining cheklanganligi, ayrim ijtimoiy guruhlar uchun madaniy va bo'sh vaqt infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ayrim sohalaridagi zararli mehnat sharoitlari inson huquqlaridan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Shu bois, bunday holatlarni tizimli ravishda aniqlash va ularning oldini olish mexanizmlarini rivojlantirish jamiyat barqarorligi va inson farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi⁴.

Tinchlik uchun olib boriladigan kurashni, avvalo, tinchlikni barpo etishga qaratilgan sa'y-harakatlar majmui sifatida talqin etish mumkin. Tinchlikning o'zi esa ijtimoiy munosabatlarni uyg'unlashtirish, barqaror asoslarni yaratish va ularni mustahkamlash jarayonidan iboratdir. Chunki jamiyat yaxlit tizim bo'lib, uning alohida qismlari o'rtasidagi tafovutlar ko'pincha tengsizlikdan kelib chiqadigan adolatsizlik va erkinliklarning cheklanishiga sabab bo'ladi. Bunday holatlar jamiyatning barcha a'zolariga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Tinchlik etikasi inson-inson hamda inson-tabiat munosabatlarida vaqt va makon uyg'unligini ta'minlaydigan fikrlar, xatti-harakatlar va hissiy holatlarning muvozanatini nazarda tutadi. Shu ma'noda, tinchlik mehr-muhabbat va o'zaro g'amxo'rlikni o'z ichiga oladi. Boshqalar bilan munosabatlar o'zaro yordam va hamjihatlikka, jamiyat va tabiat bilan aloqalar esa umumiy hamdardlikka asoslanadi. Axloqiy harakatning muhim jihati sifatida empatiya, ya'ni boshqalarning holatini anglash va hurmat qilish ko'riladi. O'zaro hurmat doirasida bag'rikenglikka asoslangan munosabatlarni shakllantirish axloqiy yetuklikning muhim ko'rsatkichidir.

Inson va tabiat o'rtasidagi begonalashuvni bartaraf etish, shuningdek, o'zini anglash jarayonini qo'llab-quvvatlash individual va ijtimoiy rivojlanish uchun zarur shart hisoblanadi. Erkinliklar umumiy hamkorlik va birdamlik muhitida ro'yobga chiqqandagina real mazmun kasb etadi. Shu bois, tinchlikni qaror toptirish o'zaro tan olish, teng huquqlilik, adolat va erkinlik tamoyillariga asoslangan munosabatlarni talab etadi.

O'zaro tan olishning yetishmasligi adolat tamoyiliga putur yetkazib, erkin muloqot imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Bu esa kelishmovchiliklarning kuchayishiga olib kelishi ehtimolini oshiradi. Falsafiy manbalarda, xususan, Arastu ta'kidlaganidek, qarama-qarshiliklar va nizolar ko'pincha hurmatning yetishmasligidan kelib chiqadi. Shu nuqtai nazardan, tinchlik jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy sohalarida insonparvarlikka asoslangan munosabatlarni rivojlantirishni anglatadi.

Tinchlik konsepsiyasida muhim o'rin tutadigan masalalardan biri inson huquqlaridir. Inson huquqlarini muhokama qilishda ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari, shuningdek, ijtimoiy va hududiy sharoitlarni hisobga olish muhimdir. Shu jihatdan, Inson huquqlari umumijahon deklaratsiyasining 17-moddasida belgilangan xususiy mulk huquqi masalasini ijtimoiy mas'uliyat tamoyillari bilan uyg'un holda talqin etish zarurligi ta'kidlanadi. Xususan, mulkdan foydalanishda insonlar va tabiat manfaatlariga zarar yetkazmaslik, adolati va barqaror munosabatlarni ta'minlash tamoyillarini kuchaytirish tinchlik va barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi⁵. Ijtimoiylik va omon qolishning madaniy hamda biologik-genetik asoslarida tinchlik tamoyili muhim o'rin tutadi. Insoniyat taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, hamkorlik, o'zaro ishonch va birdamlik jamiyat barqarorligining asosiy shartlaridan biridir. Shu bilan birga, ayrim ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shaxsiy manfaatlarining ustuvor qo'yilishiga olib kelib, ijtimoiy aloqalarning zaiflashishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday sharoitlarda raqobat,

3 https://www.who.int/ru/news-room/questions-and-answers/item/monkeypox?gclid=EAlalQobChMk-Xk76iR_QIVsSB7Ch288Af-mEAAYASAAEgKQD_D_BwE

4 Насилие / Гусейнов А. А. // Нанонаука – Николай Кавасила [Электронный ресурс]. – 2013. – С. 104–105.

5 https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml

manfaatlar to'qnashuvi va resurslardan foydalanishdagi nomutanosibliklar ijtimoiy muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud.

Mazkur holatlarni hisobga olgan holda, jamiyat rivojida muhim vazifa sifatida adolatli taqsimot, ijtimoiy mas'uliyat va inklyuzivlik tamoyillarini kuchaytirish zarur. Bu yondashuv resurslardan oqilona foydalanish, imkoniyatlarga teng kirishni ta'minlash va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada, adolat, tenglik va erkinlikning mustahkam poydevori shakllanadi hamda jamiyatning uzoq muddatli barqaror rivoji ta'minlanadi.

Tinchlik falsafasi qamrab oladigan masalalar inson va jamiyat hayotida keng ko'lamli bo'lib, ularni hal etish izchil, tizimli va uzoq muddatli yondashuvni talab etadi. Tinchlikni qaror toptirish jarayoni "shu yerda va hozir" tamoyiliga asoslanib, kundalik amaliyotda axloqiy me'yorlar va ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlashni ko'zda tutadi. Zo'ravonlik va to'qnashuvlarni normallashtiruvchi qarashlar ostida ko'pincha ijtimoiy beqarorlik, ishonchsizlik va manfaatlar ziddiyati kabi omillar yashiringan bo'ladi.

Shu bois, tinchlikni mustahkamlash yo'lida ijtimoiy adolat, o'zaro hurmat, hamkorlik va resurslarni adolatli boshqarish tamoyillariga tayangan holda yondashish muhimdir. Bu yondashuv jamiyatda ijtimoiy muvozanatni tiklash, salbiy tendensiyalarni kamaytirish va konstruktiv muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi⁶.

"Tinchlikparvarlik" va "tinchlik madaniyati" kategoriyalarining mazmuni nisbiy xarakterga ega bo'lib, amaliyotda ular turlicha darajalarda namoyon bo'ladi. Aksariyat holatlarda tinchlikparvarlik faoliyati obyektiv ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq holda shakllansa, tinchlik madaniyati subyektiv ong, qadriyatlar va munosabatlar tizimi orqali insonni muayyan ratsional faollik darajasiga ko'taradi. Shu bilan birga, tinchlikparvarlik faoliyatining mezonlari va darajalari dinamik ravishda o'zgarib boradi: kecha tinchlik yo'lidagi faol harakat sifatida baholangan xatti-harakatlar bugungi talablar nuqtayi nazaridan kundalik yoki odatiy faoliyat darajasida qolishi mumkin. Shundan kelib chiqib, tinchlik madaniyatining asosiy vazifasi fuqarolarning tinchlikparvarlik faoliyatini ongli ravishda anglash darajasini oshirish va ularni tinchlikparvarlik siyosatiga faol jalb etishdan iboratdir.

"Tinchlikparvarlik" va "tinchlik madaniyati" o'rtasida umumiy jihatlar mavjudligini inkor etmagan holda, ularning farqlarini aniqlashtirish metodologik jihatdan muhim hisoblanadi. Bunda obyekt va predmet, miqdoriy va sifatiiy ko'rsatkichlar, shuningdek, istiqboldagi natijalar asosida konkretlashtirish zarur. "Tinchlikparvarlik" tushunchasi urush va nizolarga munosabatda ijtimoiy-madaniy omillarning dinamik o'zgarish jarayonini ifodalaydi.

"Tinchlik madaniyati" esa munosabatlar ko'lami, yo'nalishlari va sifatiiy xususiyatlarini aks ettiradi. Ushbu tushunchalarning mazmuni tinchlikparvarlik falsafasining ichki muvozanatini, tabiat va jamiyatdagi barqaror o'zgarishlarning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liqligini ifodalaydi.

Tinchlik madaniyati tenglik, adolat, demokratiya, inson huquqlari, bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillariga asoslangan bo'lib, birgalikda yashash va resurslarni adolatli taqsimlashni qo'llab-quvvatlaydigan qadriyatlar majmuini anglatadi. Shu bois, ayrim tadqiqotchilar, jumladan, rossiyalik olim A. N. Samarin ta'kidlaganidek, tinchlik madaniyati va u bilan qarama-qarshi bo'lgan zo'ravonlikka moyil madaniyatlar o'ziga xos belgilar orqali farqlanadi. Bunda tinchlik madaniyati ochiq muloqot, fikrlar xilma-xilligini e'tirof etish va ijtimoiy murosa mexanizmlarini rivojlantirish bilan tavsiflanadi⁷.

Tinchlik madaniyatini rivojlantirish uchun qabul qilinishi zarur bo'lgan takliflarni aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu madaniyat, eng avvalo, zo'ravonlikning barcha shakllarini rad etishga qaratilgan bo'lib, kelishmovchiliklarning chuqur ildizlarini aniqlash va ularning oldini olishga xizmat qiladigan profilaktik choralarni ilgari suradi. Shu jihatdan, tinchlik madaniyati jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

"Tinchlik madaniyati" atamasini ilmiy muomalaga kiritgan YUNESKOning sobiq Bosh kotibi Federiko Mayor ta'kidlaganidek, tinchlik madaniyati o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, zamonaviy taraqqiyotning muhim jihatlari aks ettiradi. U insoniyat taraqqiyotida tinchlik, hamkorlik va o'zaro ishonch tamoyillarining ustuvorligini ifodalaydi. Tinchlik madaniyati turli etnoslar, millatlar va qit'alar o'rtasida samarali hamkorlikni rivojlantirish, integratsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash va ularning izchil amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida inson huquqlarini himoya qilish, tenglikni ta'minlash va kamsitishning har qanday ko'rinishlariga qarshi turish tamoyillari e'tirof etiladi. Xususan, inson qadr-qimmatini ulug'lash, irqiy va madaniy tafovutlardan qat'i nazar, barcha insonlar o'rtasida o'zaro hurmat va bag'rikenglikni mustahkamlash tinchlik madaniyatining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Shu tariqa, tinchlik madaniyati jamiyatda ijtimoiy birdamlikni kuchaytirish va barqaror taraqqiyotga erishish uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.⁸

6 <https://iep.utm.edu/peace/>

7 Самарин А.Н. Культура мира как открытый междисциплинарный проект / А.Н.Самарин // Конфликтология. Теория и практика. –М.:СПб., 2005. №1. –С.13-21.

8 Қаранг: Алимасов В. Тинчлик маданияти ва унинг глобал муаммолари // Мустақил Ўзбекистон: Фалсафа фанларининг долзарб муаммолари (маърузаларнинг қисқача матнлари 2002 йил 5 июн). Республика VIII илмий-назарий конференцияси. Т.: И.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2002. 38-бет.



Tinchlik madaniyatiga ega bo'lgan shaxs mavjud muammolarni muloqot va o'zaro muzokaralar orqali hal etishga intiladi. Ushbu madaniyat har bir insonning asosiy huquqlardan to'liq foydalanishi hamda jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur maqsadlarga ma'naviy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy vositalar orqali erishiladi.

Tinchlik madaniyatini tadqiq etishda turli ilmiy yondashuvlar qo'llaniladi. Jumladan, siyosiy, tarixiy, falsafiy, sotsiologik, aksiologik, funksional, didaktik, semiotik, antropologik va gumanistik yondashuvlar ushbu tushunchaning turli jihatlarini yoritib beradi. Ushbu yondashuvlarning har biri o'ziga xos mazmun va metodologik asosga ega bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy tamoyil tinchlikparvarlik prinsipida yaqqol namoyon bo'ladi.

Tinchlikparvarlik deganda urush va qon to'kishning har qanday ko'rinishlarini rad etish, tinch-totuv yashashga ijobiy munosabat bilan cheklanib qolmasdan, nizolarni bartaraf etish va tajovuzkorlikning oldini olishga qaratilgan faol pozitsiya tushuniladi. Bunday yondashuv shaxsdan nafaqat tinchlik haqidagi g'oyalarni bayon etishni, balki ularni amaliy harakatlar orqali ro'yobga chiqarishni ham talab etadi. Shu sababli, tinchlikparvarlik faol xatti-harakat, tashabbuskorlik va tashkilotchilikni o'z ichiga olgan ijtimoiy mas'uliyat shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Tinchlikparvarlik tamoyillariga doimiy amal qilgan shaxslar jamiyatda yuksak qadrlanadi, chunki ularning fidokorona faoliyati har bir inson hayotini noyob va bebaho qadriyat sifatida e'tirof etishga xizmat qiladi. Bunday faoliyat natijasida har bir fuqaroning qadr-qimmatini, har bir davlatning suvereniteti va har bir millatning o'z hayot tarziga mos yashash huquqi hurmat qilinadi. Shu bilan birga, tinchlikparvarlik mamlakatlararo hamkorlikni mustahkamlash, avlodlar ravnaqi, tarixiy-madaniy aloqalarni rivojlantirish hamda millatlar va turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida o'zaro tushunishni qaror toptirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tinchlik madaniyati jamiyat taraqqiyotining muhim falsafiy va ijtimoiy asoslaridan biri hisoblanadi. Immanuel Kantning "abadiy tinchlik" haqidagi g'oyalari bugungi globallashuv sharoitida ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan bo'lib, davlatlararo munosabatlarda huquqiy, axloqiy va siyosiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqotda tinchlikni faqat urushning yo'qligi sifatida emas, balki adolat, tenglik, erkinlik va o'zaro hurmatga asoslangan barqaror ijtimoiy holat sifatida talqin etish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

O'tkazilgan tahlillar tinchlik madaniyatini shakllantirishda ta'lim-tarbiya tizimining rolini kuchaytirish, yoshlar ongida zo'ravonlikka nisbatan murosasiz va mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish, shuningdek, inson huquqlari va bag'rikenglik tamoyillarini tizimli ravishda targ'ib etish muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash hamda tinchlik g'oyalarini fanlararo yondashuv asosida o'rganish zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar sharhi:

1. War and International Justice: a Kantian perspective by Brian Orend. Wilfrid Laurier Univ. Press, 2000. ISBN 0889203377 pp. 145–146
2. Prefaces to Peace: a Symposium [i.e. anthology], Consisting of [works by] Wendell L. Willkie, Herbert Hoover and Hugh Gibson, Henry A. Wallace, [and] Sumner Welles. "Cooperatively published by Simon and Schuster; Doubleday, Doran, and Co.; Reynal & Hitchcock; [and] Columbia University Press", [194-]. xii, 437 p.
3. https://www.who.int/ru/news-room/questions-and-answers/item/monkeypox?_gclid=EAlalQobChMIkXk76iR_QIVsSB-7Ch288AfmEAAYASAAEgKQD_D_BwE
4. Насилие / Гусейнов А. А. // Нанонаука – Николай Кавасила [Электронный ресурс]. – 2013. – С. 104–105.
5. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml
6. <https://iep.utm.edu/peace/>
7. Самарин А.Н. Культура мира как открытый междисциплинарный проект / А.Н.Самарин // Конфликтология. Теория и практика. –М.:СПб., 2005. №1. –С.13-21.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.